

CHANGSIMON CHOLG‘ULARNI QIYOSLASH ORQALI YUTUQ VA KAMCHILIKLARINI ISHLAB CHIQUISH

*Qo‘qon davlat universiteti San‘at va sport fakulteti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi 3-bosqich talabasi
To‘lanboyeva Shoxida Murodjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa san‘atida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan chang cholg‘usining tarixiy taraqqiyoti, ijrochilik imkoniyatlari haqida ma‘lumot berilgan. Tadqiqotning bosh maqsadi — o‘zbek chang sozi va dunyo xalqlari madaniyatidagi boshqa changsimon cholg‘ularni (santur, simbala, magna va boshqalar) o‘zaro qiyosiy tahlil qilish orqali ularning konstruktiv hamda funksional yutuq va kamchiliklarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari an‘anaviy cholg‘u ijrochiligini modernizatsiya qilish va milliy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Cholg‘ushunoslik, chang cholg‘usi, changsimon cholg‘ular, qiyosiy tahlil, santur, simbala, magna, qonun, chang, milliy musiqa san‘ati, an‘anaviy ijrochilik, maqom kuylari, ovoz tembri, ellik torli, Alisher Navoiy, "Saba‘i Sayyor".

Dunyoda turli tuman millatlar, turli xil urf-odatlar, an‘analalar hamda har bir davlatning milliy musiqa san‘ati, ko‘ngilni larzaga keltiradigan sehrli ohanglari va cholg‘u asboblari mavjud. Shu jumladan o‘zbek xalqining ham o‘ziga hos milliy cholg‘u asboblari mavjud bo‘lib ularning odamni sehrlab qo‘yadigan ohanglari hozirgi kungacha butun dunyoni hayratga solib kelmoqda. O‘zbek milliy cholg‘u ijrochiligi tarixi va san‘ati boy va rang-barangdir. Ushbu qadimiy merosning ajralmas bir qismi bo‘lgan chang cholg‘usi o‘zining keng imkoniyatlari va o‘ziga xos ovoz tembri bilan alohida ajralib turadi. Qadimda chang cholg‘usi ‘ellik torli‘ deb ta‘riflangan va asrlar o‘tib sakllanib, bugungi kunda o‘zbek xalq kuylari va maqom kuylarining asosiy ustuni bo‘lib kelmoqda. Shu bilan birga uzoq o‘tmishda ham chang sozining sehrli ovozi insonlarning ko‘ngligidan chuqur joy egallagan. Buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning “Sab‘ai Sayyor” asarida “chang” cholg‘usiga quyidagicha ta‘rif berilgan :

Sar qad olsa erdi maydin kom
Nastarinni chu aylabon gulfon
Chang olib torini tuzor edi
Lek jon rishtasin uzor edi!
Demagil chang, soliqni ham qad
Chang qadrlar bila bo‘lib ham qad i
Bo‘libon suluqdin muhbir,
Bosh qo‘yilikda bo‘lmog‘i zokir.

Chang cholg‘u ijrochiligi tarixi chang cholg‘usi yaratilgan davrdan boshlanadi. Ko‘p xalq cholg‘ularida kuzatilganidek, ushbu cholg‘u ham qachon ixtiro qilingani to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar yo‘q. Lekin, **yozma va arxeologik manbalar** orqali Chang cholg‘usining juda qadimiy cholg‘u ekanligi haqida ma‘lumotlar yetib kelgan. Boborahim Mashrab (XVII asr) o‘zining bir g‘azalida shunday deydi:

Mug lardin o‘t va Chang cholg‘usi keldi

Bu Mashrabning qalbi g‘amga to‘ldi.

“Mug‘lar” bu – otashparastlar hisoblanadi, “Avesto”ning Gotlar xor bo‘lib kuyilgan va bunga albatta, musiqa jo‘r bo‘lgan. Mashrabning qarashi bo‘yicha Chang cholg‘usining qadimgi shakllari Zardushtiylik dini bo‘lgan. Jaloliddin Rumiyning (XIII asr) “Masnaviyi ma‘naviy” asarida xorazmlik **Pin Changiy** (Changchilar ustoz) degan shaxsni VII asrda Arabistonning Madina shahriga borib xalifa Umar ibn Xattobga uchrashganini, islom dini vakillari yurtimiz Movoraunnahrda musiqani ta‘qiqlashayotganini yetkazadi va uning Chang ijrochisini tinglagandan so‘ng xalifa Umar ibn Xattob Movoraunnahrga musiqa islomga zid emasligi to‘g‘risidagi buyruqni Piri Changiydan berib yuborganligini hikoya qiladi. Ushbu ma‘lumot Chang ijrochilarining islom dinida musiqaning e‘tirof etilishida faol ishtirok etishganini ko‘rsatadi oladi. Darvesh Ali Changiy (XV asr) “Risolai musiqiy” (Musiqa risolasi) asarida XVII asrda Chang cholg‘usi ning “32 tori bo‘lgan”ligini ta‘kidlab o‘tgan va chang cholg‘usini “cholg‘ular malikasi” deb atagan.

Cholg‘ushunoslik fanida cholg‘u asboblari turlarini o‘rganish va ularni qiyosiy tahlil qilish muhim o‘rin tutadi. Changsimon cholg‘ular (torlarni urib yoki tirnab chalinadigan asboblari) Markaziy Osiyo, xususan o‘zbek milliy musiqa madaniyatida qadimiy va boy an‘analarga ega. Changsimon cholg‘ular guruhga asosan **chang, qonun** (kanon) shuningdek **santur, nusxa, magna va simbala** cholg‘ularning ayrim xususiyatlari kiradi. Changsimon cholg‘ularni torlarini maxsus cho‘plar bilan urish yoki tirnash orqali tovush hosil qiladi. Ularning tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi va ular Sharq musiqasida nafis, boy tembr va polifonik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada changsimon cholg‘ularni (chang va qonun misolida) qiyoslash orqali ularning yutuqlari (afzalliklari) va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, zamonaviy ijrochilik va cholg‘ulashtirishda takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Ushbu rasmda esa changsimon cholg‘ular tasvirlangan.



Changsimon cholg'ularning umumiy tavsifi. Chang — trapetsiya shaklidagi cholg'u. Torlari metall dan bo'lib, uni bambukdan yasalgan ikki cho'p yordamida urib chalinadi. Ovoz diapazoni keng, temбри yorqin, kuchli va rezonansli. 1930-yillarda yangi xromatik tovushqatorga ega changing turlari yaratildi (chang-pikkola , chang-tenor, chang- bas). Jarangdor temberi , keng dinamikasi va texnik imkoniyatlari tufayli turli ansambllarda , xalq cholg'ulari orkestri tarkibida yakkanavoz cholg'u sifatida ham ijrochilar orasida ham keng tarqaldi. Chang cholg'usi turlarining sadolanish imkoniyatlari quyidagicha;

- 1)Pikollo Chang - diapazoni birinchi oktavadagi *do* dan uchinchi oktavadagi *lya* gacha;
- 2)Tenor Chang - diapazoni katta oktavadagi *soldan* ikkinchi oktavadagi *mi* gacha va kichik oktavadagi *do* dan birinchi oktavadagi *sol*gacha;
- 3)Bas Chang - diapazoni katta oktavadagi *do* dan kichik oktavadagi *sol*gacha

Ushbu cholg'u asboblari yuqori, o'rta va past registrlarda ijro etish mumkin. Chang asboblari har birining o'ziga xos ovoz imkoniyatlari va o'ziga xos jarangdorliklari mavjud.

Changsimon cholg'ulardan biri –**Santur**. Ushbu ko'p torli urma musiqa cholg'u asbobi hisoblanadi va u changing bir turi. Kavkaz mintaqasi, Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya va boshqa mamlakatlarda professional musiqa sozi sifatida keng tarqalgan. Quti shaklida, 2 ta cho'p bilan urib chalinadi. Xromatik tovushqatorga ega. Tovushi mayin va yoqimli. Yozma manbalarga ko'ra O'rta Osiyoda, xususan, Buxoro amirligida XVI asrdan boshlab keng qo'llanila boshlangan. Hozirda Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Turkiya va Gretsiya kabi mamlakatlarda professional musiqa sozi sifatida mashhur. Torlari: Santurda 72 tadan 160 tagacha simlar bo'lishi mumkin. Odatda har bir tovush uchun 3 yoki 4 ta tor birgalikda sozlanadi. Musiqachi ikki dona maxsus yengil tayoqcha (mezrab) bilan torlarga urib chaladi. Bu unga xromatik tovushqator va juda boy, ochiq aks-sado berish imkonini beradi. Turli geografik hududlarda santurning o'ziga xos variantlari shakllangan: Fors (Eron) santuri: Odatda 9 ta xarakka (ko'prikcha) ega bo'lib, 72 ta torga ega. Hind (Kashmir) santuri: Korpusining qalinroq va trapetsiyasimonligi bilan ajralib turadi, torlari soni 100 tagacha yetishi mumkin. Iroq

santuri: To'liq xromatik bo'lib, 92 ta po'lat yoki bronza simlardan tashkil topgan. Santurning chang cholg'usidan asosiy farqi, uning korpusi va torlarining joylashuvi, hamda diapazoni, shuningdek, turli xalqlarda o'ziga xos tovush tembriga egaligidadir.

O'zbek milliy musiqa merosida «nusxa» ko'pincha chang cholg'usining qadimgi yoki kichikroq shakliga nisbatan ishlatilgan. U tuzilishi jihatidan an'anaviy changga juda o'xshash, ammo hajmi va torlar soni bilan farq qilgan. O'rta asr musiqa risolalarida (masalan, Darvish Ali Changiy asarlarida) cholg'ularning turli ko'rinishlari tasvirlangan. Uning hajmi odatiy changdan ko'ra ixchamroq bo'lgan. Torlar soni kamroq bo'lib, asosan o'quv jarayonida yoki kichik doiralarda chalish uchun mo'ljallangan «namuna» asbob vazifasini o'tagan. «Nusxa» atamasi ko'proq «andoza» ma'nosida qo'llanilgan. Ya'ni, biror mukammal cholg'u asbobining shakli va pardalar tartibini saqlab qolgan holda yasalgan kichik nusxasi bo'lgan. Bu asbobdan yosh sozandalarga chang chalish sirlarini o'rgatishda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Bugungi kunda professional o'zbek milliy cholg'u ansambllarida «nusxa» deb nomlanuvchi alohida cholg'u deyarli ishlatilmaydi. Uning o'rnini takomillashtirilgan (xromatik) chang cholg'usi egallagan. Biroq, cholg'ushunoslik muzeylarida yoki qadimgi miniatyuralarda uning shakli ko'rinishlarini uchratish mumkin.

Simbala (yoki ko'pincha Simbana) — bu o'zbek milliy cholg'ushunosligida chang oilasiga mansub, o'tmishda qo'llanilgan, ammo bugungi kunda deyarli iste'moldan chiqqan qadimiy urma-torli cholg'u asbobidir. "Simbala" nomi ikki qismdan iborat deb taxmin qilinadi: "Sim" (forscha — sim, metall tor) va "Bala" (baland, yuqori). Ya'ni, "baland ovoqli simli cholg'u" ma'nosini beradi. U o'zining tuzilishi bilan Yevropadagi Simbula (Cimbalom) va Sharqdagi Chang cholg'ulari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Simbala ham chang kabi trapetsiya shaklidagi yog'och qutidan iborat bo'lgan. Unda torlar soni nisbatan kamroq bo'lib, asosan metall (mis yoki po'lat) simlardan iborat bo'lgan. Bu unga o'ziga xos ochiq va jarangdor sado bergan. Maxsus uchi qayrilgan yog'och tayoqchalar bilan torlarga urib chalingan. Simbala an'anaviy o'zbek changiga juda o'xshash bo'lsa-da, quyidagi jihatlari bilan ajralib turgan: Simbala odatda ixchamroq va yengilroq bo'lgan. Uning diapazoni changga qaraganda torroq bo'lib, asosan xalq kuylarining sodda variantlarini ijro etishga moslashgan. Korpusining yupqaligi sababli ovozi birmuncha "quruqroq" va o'tkirroq chiqqan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda chang cholg'usi takomillashib, professional jamoalarga kirib kelishi natijasida Simbala kabi kichikroq va imkoniyati cheklangan variantlar sekin-asta foydalanishdan chiqib ketgan. Hozirda bu cholg'u asosan musiqa muzeylarida eksponat sifatida yoki tarixiy risolalarda uchraydi. Ammo Yevropa xalqlarida Cimbalon ya'ni Simbala cholg'usi keng tarqalgan.

Cimbalom (yoki o'zbek tilida Simbala) — bu asosan Markaziy va Sharqiy Yevropa xalqlari (venger, rumin, belorus, ukrain) musiqasida keng qo'llaniladigan

professional urma-torli cholg'u asbobidir. U o'zbek milliy cholg'usi bo'lgan changning eng yaqin "qarindoshi" hisoblanadi. Trapetsiya shaklidagi katta yog'och quti. O'zbek changidan farqli o'laroq, professional venger cimbalomlari to'rtta oyoqqa ega va u xuddi royal kabi yerda turadi. Zamonaviy cimbalomning eng muhim xususiyati bor — demfer (sado qaytargich) pedali bor. Bu pedal yordamida sozanda torlarning jarangini xuddi fortepianodagi kabi to'xtatishi yoki cho'zishi mumkin. Unda 120 dan ortiq po'lat va mis simlar bo'lib, ular xromatik tartibda joylashgan. Sozanda ikki dona yog'och tayoqcha bilan torlarga urib chaladi. Tayoqchalarning uchiga ko'pincha paxta yoki yumshoq mato o'raladi, bu esa tovushning mayin va baxmaldek chiqishini ta'minlaydi. Cimbalom juda keng diapazonga ega (4-5 oktava). Unda ham tezkor pasajlarni, ham murakkab akkordlarni ijro etish mumkin. Vengriya maktabi: Cimbalomni professional konsert cholg'usi darajasiga vengerlar olib chiqqan. 1874-yilda Yozef Shunda uni takomillashtirib, pedal o'rnatgan va hozirgi ko'rinishga keltirgan. Chang bilan o'xshashligi ikkalasi ham urma-torli, trapetsiya shaklida va tayoqchalar bilan chalinadi. Farqi esa changda pedal tizimi bor ammo cimbalonni bilan bir xil emas va uni ko'tarib yurishning imkoni bor, cimbalom esa ancha og'ir va statsionar (qo'zg'almas) cholg'u hisoblanadi. Bugungi kunda cimbalom nafaqat folklor, balki simfonik orkestr va hatto jazz yo'nalishlarida ham muvaffaqiyatli ishlatilmoqda. Cimbalom (simbala) cholg'usi asrlar davomida turli xalqlar madaniyatiga moslashgani sababli, uning bir necha asosiy turlari shakllangan.

Konsert (Professional) cimbalomi- bu eng mukammal va murakkab turidir. Unda to'rtta oyog'i va ovozni o'chiruvchi pedali bor. Juda keng diapason (4-5 oktava), to'liq xromatik. Vatani esa Vengriya. 1874-yilda V. Yozef Shunda tomonidan takomillashtirilgan. Hozirda simfonik orkestrlarda aynan shu turdan foydalaniladi.

Xalq (Ko'chma) cimbalomi. Bu tur asosan to'y-hashamlar va xalq sayillarida ishlatilgan. Oyoqlari bo'lmaydi, sozanda uni bo'yniga bog'lab yoki stol ustiga qo'yib chaladi. Pedali yo'q. Diapazoni kichikroq, asosan xalq kuylarini ijro etishga mo'ljallangan. Ruminiya, Moldova (u yerda Tambal mic deb ataladi), Belarus va Ukraina qishloq joylarida ko'p uchraydi.

Gretsiya santuri (Sandouri): Bu cimbalomning Gretsiyadagi varianti bo'lib, u ham trapetsiya shaklida, lekin tayoqchalari va chalish uslubi o'ziga xos "yunoncha" ohang beradi.

Kashmir (Hind) santuri: Torlari soni juda ko'p (100 tagacha) va u tizzaga qo'yib chalinadi.

Eron santuri — bu qadimiy va mukammal urma-torli musiqa asbobi bo'lib, Eron klassik musiqasining (Radif tizimi) asosi hisoblanadi. U o'zining trapetsiyasimon shakli, simlarining o'ziga xos sadosi va murakkab sozlanish tartibi bilan boshqa hududlardagi santurlardan ajralib turadi. Santur korpusi odatda yong'oq, tut yoki qizil daraxt kabi qattiq yog'ochlardan yasaladi. Uning trapetsiya shaklidagi qutisi taxminan

90 cm uzunlikda bo'ladi. Standart Eron santurida 72 ta simdan iborat bo'lib, ular har biri 4 tadan qilib 18 ta xarak (ko'priqcha) ustiga guruhlangan. O'ng tomon (sariq simlar): Mis qotishmasidan tayyorlangan bo'lib, past (bas) tovushlarni beradi. Chap tomon (oq simlar): Po'latdan yasalgan bo'lib, yuqori va o'rta diapazonlar uchun xizmat qiladi. Musiqachi barmoqlari orasida juda yengil, uchi ba'zan namat (felt) bilan qoplangan yog'och tayoqchalarni (mezrab) tutib, simlarga urish orqali chaladi.

Changsimon milliy cholg'ularimizdan yana biri bu – Qonun cholg'usidir. Qonun — Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo hamda Kavkaz xalqlari orasida keng tarqalgan, o'zining sehrli va jozibador sadosi bilan ajralib turuvchi tirnama-torli musiqa asbobidir. Qonun o'zining texnik imkoniyatlari bo'yicha Sharq cholg'ulari orasida "qirolicha" hisoblanadi. Qonun trapetsiya shaklidagi yassi qutidan iborat. Uning bir tomoni to'g'ri burchakli, ikkinchi tomoni esa qiya qilib yasaladi. Korpusi asosan yong'oq yoki chinor daraxtidan yasaladi. Ustki qismining bir bo'laki baliq yoki kiyik terisi bilan qoplanadi — bu qonunning o'ziga xos aks-sadosini (rezonansini) ta'minlaydi. Torlari odatda 24 tadan 26 tagacha torlar guruhiga ega. Har bir guruhda 3 tadan tor bo'lib, jami 72–78 ta tor mavjud. Qonunning eng muhim detali — bu torlarning chap tomonida joylashgan kichik metall dastasimon moslamalar (mandallar) dir.

Ijrochi chalish davomida ushbu mandallarni ko'tarib-tushirish orqali tovush balandligini yarim ton yoki chorak tonga o'zgartira oladi. Bu esa Sharq musiqasidagi murakkab maqom yo'llarini va mikrotorlarni (nimchoorak pardalarni) ijro etish imkonini beradi. Qonun har ikki qo'lning ko'rsatkich barmoqlariga taqilgan maxsus metall uzuklar va ularning orasiga qo'yilgan suyak yoki plastmassa mizroblar yordamida chalinadi. U asosan tizzaga yoki maxsus pastak stol ustiga qo'yib ijro etiladi. Qonun juda qadimiy tarixga ega. Ba'zi manbalarda uning ixtirosi Abu Nasr Farobiyga nisbat beriladi. O'rta asrlarda u butun Sharq dunyosida professional saroy musiqasining ajralmas qismi bo'lgan. O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qayta tiklandi va hozirda milliy cholg'u ansambllarida yetakchi o'rin tutadi.

Changsimon (urma-torli trapetsiyasimon) cholg'ular (chang, santur, cimbalom, qonun) o'zining murakkab tuzilishi bilan ham yutuq va afzalliklarga, ham o'ziga xos qiyinchiliklarga ega. Ko'p torli bo'lgani uchun bu cholg'ular juda kuchli rezonansga va "koinotni eslatuvchi" keng aks-sadoga ega. Sozanda bir vaqtning o'zida ham melodiya (kuy), ham akkord (jo'rnavozlik) chalishi mumkin. Bu ularni orkestr yoki ansambl uchun "yurak" vazifasiga ko'taradi. Tayoqchalar bilan urib chalingani sababli, tovushni juda mayin (piano) dan juda kuchli (forte) gacha boshqarish imkoni bor. Ular odatda 3 tadan 5 tagacha oktavani qamrab oladi, bu esa ularda ham bas, ham yuqori registrdagi murakkab asarlarni ijro etishga yo'l ochadi.

Uning biroz kamchiligi. Sozlashning qiyinligida, bu eng asosiy muammo. 72 tadan 100 tagacha tori bor cholg'uni sozlash juda ko'p vaqt va nozik quloq talab qiladi.

Havo harorati o'zgarsa, simlar tez bo'shashadi. Simlar urilgandan keyin uzoq vaqt tebranib turadi. Agar cholg'uda maxsus pedal (cimbalomdagidek) bo'lmasa, tovushlar bir-biriga qo'shib, "bo'tqa" (shovqin) hosil qilishi mumkin. Cimbalom yoki professional changlar juda og'ir va ko'chma emas. Bu esa sozandadan transport va joy masalasida alohida e'tibor talab qiladi. Ko'p sonli po'lat simlarning kuchli tarangligi korpusga katta bosim beradi, bu esa asbobning umrini qisqartirishi yoki simlarning tez-tez uzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Zamonaviy cholg'ushunoslikda changsimon asboblarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun muhandislik darajasida bir qancha yechimlar joriy qilingan. Mana ularning asosiylari:

1. Metall ramkali (Karkasli) changlar

An'anaviy changlarning eng katta muammosi — havo namligi o'zgarganda yog'och korpusning kengayib-qisqarishi va natijada sozning buzilishi edi. Yechim: Cholg'u qutisi ichiga yoki asosi sifatida mustahkam metall ramka o'rnatildi. Bu ramka simlarning tonnalab bosimini o'ziga oladi. Natija: Chang sozi oylar davomida buzilmay turadigan bo'ldi va torlarning uzilishi kamaydi.

2. Pedal va Demfer tizimi. Urma-torli cholg'ulardagi tovushlarning bir-biriga aralashib ketishi ("shovqin" effekti) katta kamchilik edi. Yechim: Venger cimbalomlaridan andoza olib, zamonaviy changlarga oyoq pedali yoki maxsus tirsak yordamida boshqariladigan demfer (o'chirgich) o'rnatildi. Natija: Sozanda kerakli vaqtda simlar tebranishini to'xtatib, musiqaning tiniqligini ta'minlaydi. Bu ayniqsa tez sur'atli (texnik) asarlarda juda muhim.

3. Eski changlarda simlar oddiy yog'ochga qadalgan bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan bo'shashib qolardi. Yechim: Fortepiano kabi metall virklar (buragichlar) va maxsus qotishmali simlardan foydalanilmoqda. Natija: Sozlash jarayoni ancha osonlashdi va sozning aniqligi (mikron darajagacha) oshdi.

5. Elektronika va Pikaplar. Katta zallarda yoki shovqinli ansambllarda changning ovozi pastlik qilishi mumkin. Yechim: Chang korpusi ichiga p'yezo-datchiklar yoki kontakt mikrofonlari o'rnatilmoqda (Elektr-chang). Natija: Ovozni kuchaytiribgina qolmay, unga turli elektron effektlar (exho, reverb) berish imkoniyati paydo bo'ldi.

Chang cholg'usi asrlar davomida boy tarixiy va evolyutsion taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Zamonaviy cholg'ushunoslik fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — tarixiy cholg'ularning o'ziga xos nusxalari va milliy an'alarini saqlab qolgan holda, chang ijrochiligini bugungi kun talablari darajasida yanada modernizatsiya qilishdir. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek milliy chang cholg'usi o'zining ko'p torli tizimi, o'ziga xos akustik imkoniyatlari va jozibador ovoz tembri bilan jahon cholg'ushunosligida alohida mavqega ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Petrosyans A. Odilov. "Chang darsligi" – T.: 1976 y.

2. A.Liviyev “O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi” –T.: 2002 y.
3. Juvayev S. S., va boshqalar. Milliy cholg‘ular tarixi va evolyutsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Alisher Navoiy. Saba’i Sayyor (Xamsa). Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2001.
- 5.Safiuddin al-Urmaviy. Kitob al-Advor (Musiqiy doiralar kitobi) / O‘rta asr musiqiy risolalari tarjimasi va sharhi. – Toshkent: Fan, 1994.
6. Shokirov T. N. O‘zbek milliy cholg‘u asboblarning jamiyat ma‘naviy madaniyatini boyitishdagi roli va ta‘siri // San‘atshunoslik muammolari jurnali. – Toshkent, 2021.